

**O`zbekiston Respublikasi**  
**Davlat statistika qo`mitasi markaziy apparati xodimlari o`rtasida**  
**O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti**  
**va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarini**  
**o`rganish soatlari to`g`risida ma`lumot**

Tadbir davomida ishtirokchilarga ma`ruzachi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-4296-sonli qarori haqida batafsil ma`lumot berdi. Ushbu qaror Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiya talablarini har tomonlama hayotga tatbiq etish, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan bolalarning huquqlarini amalda kafolatlash, ularning jismoniy, intellektual, ruhiy va ma`naviy yetuk avlod bo`lib yetishishini ta`minlash maqsadida qabul qilindi. Qaror bilan quyidagilar kafolatlandi:

- o`n sakkiz yoshga to`lgunga qadar bronlashtirish huquqi berildi;
- ularga barcha ijtimoiy xizmatlar ko`rsatiladi;
- bolalarning davlat organlariga bevosita qilgan murojaatlari to`liq ko`rib chiqishi kafolatlanadi;
- bolalarni himoya qilish maqsadida sudlarga ariza bilan murojaat qilgan da`vogar davlat boji va boshqa to`lovlarni to`lashdan ozod qilinadi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo`yicha vakili (ombudsman) – Bola huquqlari bo`yicha vakil lavozimi joriy etilishi belgilab berilgan.

2019 yil 1 sentyabrdan esa O`zbekiston Respublikasida erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshini o`n sakkiz yosh etib belgilandi.

Yig`ilish davomida ishtirokchilar tomonidan o`zlarini qiziqtirgan masalalar bo`yicha ma`ruzachi savollar berishdi hamda belgilangan muddatda va qiziqarli o`tkazildi.